

SHAXSDA AXLOQIY QADRIYATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Umirzakova Nargiza Ismailovna – *TATU Nurafshon filiali psixologi*

tel: +99890 988-27-07 e_mail: nargizaxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari, shaxsda boshlovchi - notiq-so'zlovchi, fikrlash ma'nosida nafsini, jonini, ruhini tozalashga qaratilgan tadqiqotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, axloqiy qadriyat, notiqlik, nafs ruhiy kechirmalar.

KIRISH

Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan psixologiya fanining hozirgi rivojlanish bosqichida insonning jisman, ruhan va ma'nau rivojlanishi o'rtasidagi tafovutlar va umumiyliklarni o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Inson rivojining bu jabhalari o'ziga xos takomillashuv xususiyatlariga ega. Masalan, inson tanasining rivojlanishi anatomik-fiziologik tuzilmalarning etilishi shaklida yuz bersa, ruhiy rivojlanish uning ongi, ehtiyojlari, his-tuyg'ulari, qobiliyatlari o'zgarishi va takomillashuvi tarzida ro'y beradi. Inson axloqi ham vaqt o'tishi bilan miqdoriy va sifat o'zgarishlarini boshdan kechiradi. Aslini olganda axloq qotib qolgan narsa emas, balki muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan jarayondir. Bu jarayonda shakllar tub o'zgarishlarga duch kelmasa ham, ular tarkibidagi mazmun har bir bosqichda o'zgarib, boyib va takomillashib boradi.

Axloq bir butun va tadrijiy psixologik hodisa bo'lib, shaxsning haqiqatga, yaxshilikka va go'zallikka intilishi jarayonida shakllanib va rivojlanib boradi.

Hozirgi kunda vatanimiz va jahon psixologlari konsepsiya va nazariyalarida ma'naviy rivojlanish axloqiy faollik bilan bog'lab izohlanadi. Shaxsning ma'naviy yuksalish darajasini aniqlash uchun shu yuksalishning mezonlarini belgilab olish zarur. Buning uchun esa, mezon degan tushunchani aniqlab olish zarur bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy yuksalishning mezonlari to'g'risida psixologiya va falsafaga oid adabiyotlarda turli fikrlar bayon qilingan [1].

MUHOKAMA

Mezon har qanday tizim va undagi tarkibiy qismlarning asosiy belgilarini o'lchash uchun qo'laniladigan birlikdir. Mezonlar matematik yoki fizik, miqdoriy yoki sifat belgilarini o'lchash uchun ishlatiladi. Moddiy jismlarni o'lchash bilan ma'naviy hodisalarni o'lchash o'rtasida jiddiy tafovutlar mavjud. Matematik, fizik va kimyoviy mezonlar moddiy jismlarning vaznini, uzunligini, bo'yini, kengligini, hajmini, rangini, shaklini, temperaturasini va boshqa xususiyatlarini o'lchashda

qo'llaniladi. Moddiy jismlarning bu xususiyatlari axloq olamida uchramaydi. Lekin bundan ma'naviy hodisalarni o'lchash mumkin emas, degan xulosa chiqmasligi lozim. Ma'naviy hodisalar ham o'z o'lchamlari, ya'ni mezonlariga ega.

Ma'naviy hodisalarning mezonlari, avvalo, ularning muayyan g'oyaga, idealga, maqsadga qay darajada mosligi bilan belgilanadi. Mezonlarni qo'llashdagi murakkablik shundaki, masalan, shaxsning xulq-atvori uning maqsadlariga mos kelishi, ayni paytda, ijtimoiy guruh va jamiyat manfaatlari hamda maqsadlariga zid kelishi mumkin. Bunday holatlarda ijtimoiy guruh va jamiyat maqsadlari ustuvor hisoblanadi.

Axloq olamida eng yuksak ideallar Yaxshilik, Go'zallik, Haqiqat va Adolat hisoblanadi. Shaxslar va ijtimoiy guruhlarning xatti-harakatlarini baholashda eng mezonlar vazifasini mana shu tushunchalar ifodalaydigan hodisalar bajaradi. Bu tushunchalarning har biri har bir muayyan holatda muayyan ko'rinishga ega bo'ladi. Masalan, yaxshilik tushunchasi konkret vaziyatda turli shaxslar va turli guruhlar tomonidan turlicha baholanishi mumkin. Aytaylik, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan rahmdillik qilish jinoyatchi tomonidan yaxshilik sifatida baholanadi. Lekin jinoyatchidan jabrlangan shaxs tomonidan bunday harakat yomonlik sifatida baholanishi mumkin. Bunday vaziyatlarda, avvalo, rahmdillik mezonini hisobga olish kerak. Rahmdillik shaxs axloqining muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Lekin u optimal darajadan, ya'ni me'yoridan chetga chiqqanda, salbiy xususiyat kasb etishi ham mumkin. Xuddi shuningdek, saxiylik, o'zaro yordam singari hodisalar ham muayyan me'yorlar, ya'ni mezon doirasida ijobiy xususiyatlarga ega bo'lsa, bu mezondan tashqariga chiqqanda ular salbiy hodisaga aylanishi ham mumkin.

Turli mualliflar ma'naviy yuksalishning turli mezonlarini taklif qilishadi. Bizning tahlillarimiz ko'rsatishicha, bu mezonlar o'rtasida qarama-qarshilik yo'q. Aksincha, ular bir-birini to'ldiradi. Psixologiyaga oid adabiyotlarda ma'naviy rivojlanish mezonlari haqidagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi mezonlar ma'naviy taraqqiyot darajasini ifodalashi mumkin, degan xulosaga keldik:

1. Shaxsning atrofdagi voqelik, o'zga shaxslar va o'ziga munosabatida ma'naviy jihatlarning mavjudligi va ustuvorligi.
2. Shaxsning ongi va dunyoqarashida vijdon, yaxshilik va yomonlik to'g'risida aniq tasavvurlarning mavjudligi va yaxshilik qilish yo'lidan borishga intilish.
3. O'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi takomillashtirish, o'zining xulq-atvori va tafakkur tarzini takomillashtirishga intilish.
4. O'zga odamlarning muvaffaqiyatlaridan xursand bo'lish, muvaffaqiyatsizligidan kuyunish va hamdardlik bildirishga, yordam ko'rsatishga ehtiyojning mavjudligi.

5. Sub'ektiv psixoemotsional sog'lomlik (yaxshi kayfiyat, quvonch, tetiklik).

6. Ma'naviy yuksalishning bir bosqichidan keyingisiga o'tish istagi va intilishning mavjudligi.

Shaxsni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish uning atrofdagi voqelikka, o'zgalarga, o'ziga munosabatini moddiylikdan ma'naviylik tomon yuksaltirish ham shu ikki bosqichni uyg'unlashtirishdir.

Rossiyalik psixolog olimlar A.N.Leontev va V.F.Petrenko, N.A.Koval asarlarida shaxs axloqi uning ongida umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro uyg'unlashuvi darajasi va axloq me'yorlariga aylanishi sifatida talqin etiladi. Bunday talqinning psixologik asosi shundaki, bu me'yorlar shaxs ongiga tayyor holda kiritilmaydi, balki uning intellektual va amaliy faoliyati jarayonida shakllanib boradi. Axloqiy me'yorlar kundalik hayotda u yoki bu xatti-harakatlarning ta'qiqlanishi sifatida namoyon bo'ladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligi shaxs o'ziga, boshqalarga atrof-muhitga munosabati shaklida namoyon bo'lsa, ta'qiqlar bosib o'tish mumkin bo'lmagan chegaralarni anglatadi. Axloqiy qadriyatlarda jamiyatning axloqi aks etar ekan, shaxs ularni o'zlashtirish jarayonida shu qadriyatlarning sub'ekti, tashuvchisiga aylanadi. Shaxsning jamiyat axloqiy qadriyatlarini qay darajada o'zlashtirgani uning axloqini belgilovchi mezon hisoblanadi [2].

NATIJALAR

Shaxs axloqining muhim tarkibiy qismi bo'lgan axloq haqidagi tushuncha, tasavvurlar va hukmlar insonning his-tuyg'usi, tafakkuri, idroki va psixik faoliyatining boshqa turlari singari rivojlanib boradi. Axloq va axloq shakllanishi hamda rivojlanishidagi psixologik xususiyatlar shundan iboratki, ular hech qachon tayyor holda berilmaydi. Shaxsning, jumladan, o'spirinning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi bir necha bosqichlarda yuz beradi. Ana shu bosqichlarni qay darajada tez yoki sekin bosib o'tilishi bir qator ichki va tashqi omillarga bog'liq. Shunday omillar o'spirinintellekti, idroki, tafakkuri xususiyatlari, u o'sayotgan oiladagi ma'naviy-axloqiy ustanovkalar, jamiyatdagi bola tarbiyasiga oid an'analar bilan bog'liq.

Ma'naviy rivojlanish bolaning o'zini muhitdan ajratib tasavvur qilish, va "Men"i shakllanishi jarayoni bilan bog'liq. Bolalik davrida shaxs rivojlanishining asosiy yo'nalishi o'zini o'zgalardan alohida shaxs ekanini anglashga yo'naltirilgan bo'lsa, o'spirinlik davrida bu yo'nalish yuqori cho'qqisiga etadi va endi u o'zining o'zgalari bilan bo'lgan umumiy xususiyatlarini anglashga qaratiladi. Mana shu bosqichda shaxsning ichki shaxsiy me'yorlari bilan jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlar o'rtasidagi tafovutlar ravshanlashib boradi. O'spirinning qanday shaxs

bo‘lib etilishi ana shu tavofutlarni qay darajada anglashi va bu tafovutlarni bartaraf etish yoki chuqurlashtirishga intilishi bilan belgilanadi.

Sobiq sho‘rolar tuzumi davrida sotsialistik tuzum qadriyatlarini eng qadriyatlar deb talqin qilishga va ularni yoshlar ongiga singdirishga harakat qilindi. Hozirgi davr psixologiyasida esa milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar eng qadriyatlardan ekani e‘tirof etilmoqda.

Ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi va insonga, insoniyatga xizmat qiladi. Bunday qadriyatlar butun insoniyat tomonidan yaxshilik sifatida baholanadi. Bu qadriyatlar qadriyatlar hisoblanadi. Ular shaxs, jumladan, o‘spirinongida qay darajada dominant ekani uning qay darajada progressiv shaxs ekanini belgilaydi. Shu bilan birga, bu qadriyatlarning o‘zlashtirilganlik darajasi o‘spirinning umumiy yo‘naltirilganligini ifodalaydi.

Umuminsoniy qadriyat ko‘p qirrali murakkab hodisa bo‘lib, o‘z tarkibiga inson mavjudligining turli jihatlarini, voqelik bilan turli-tuman aloqalarni, shuningdek, hayot faoliyati, insonlar va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarini qamrab oladi.

Umuminsoniy ma‘naviy madaniyat va qadriyatlarni o‘zlashtirish va amalda ularga itoat qilish darajasi shaxs axloqining eng muhim mezonlari va ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi.

Axloq tushunchasi lug‘atlarda quyidagicha izohlanadi: "Insonlarning o‘zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyat tizimi moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa.

Insonning har bir xatti-harakatining asosini atrof-dagi voqea-hodisalarga beradigan bahosi tashkil etadi. Bu bahoning yo‘nalishi va mohiyatini unda mavjud bo‘lgan qadriyatlar belgilaydi. Chunki, har qanday baho muayyan qadriyat nuqtai nazaridan beriladi.

Inson qadriyatlarining tizim holida bo‘lishi uning harakatlari, xulq-atvorini belgilaydigan motivatsiyaning zarur sharti hisoblanadi. Insonning turli-tuman vaziyatlarda va sharoitlarda amalga oshiradigan xatti-harakatlarini o‘zaro bog‘lab turuvchi halqa ham qadriyatlar tizimi hisoblanadi.

Shaxsning ma‘naviy-axloqiy rivojlanishida uchta asosiy jihatni ko‘rsatish mumkin:

1. Ma‘naviy salohiyatning intellekt, xotira, tafakkur, idrok, tasavvur singari psixik hodisalarda namoyon bo‘lishi.

2. Shaxs ma‘naviy olamining ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali boyib borishi.

3. Shaxs faoliyatining ijodiy xarakterga ega ekanligi va bu faoliyat uning o'zini namoyon qilishiga olib kelishi.

Bu uch tomon o'zaro uzviy bog'langan va tegishli sharoitlarda o'spirin shaxsining ma'naviy takomilini belgilab beradi. Axloq psixologiyasiga oid adabiyotlarni tahlil qilish orqali biz o'spirin ma'naviy-axloqiy rivojlanishida uchta asosiy tarkibiy qismni ajratib ko'rsatishni lozim topdik. Bular quyidagilar: kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari.

Axloqning har bir komponenti qay darajada rivojlanganligi darajasini quyidagi mezonlarga qarab belgilanadi:

1. Umuminsoniy qadriyatlarga mosligi.
2. Shaxsning umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirish darajasi;
3. Yangi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni yaratishdagi roli.
4. Ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilishdagi roli.
5. Shaxsning barqaror pozitsiyasini shakllantirishdagi roli.
6. Ma'naviy qadriyatlarni tanqidiy anglashdagi roli.

Komponentlarning har biri murakkab tarkibiy qismlar va sifatlardan tashkil topgan bo'lib, o'zgaruvchanlik xususiyatiga xam ega. Masalan, kognitiv komponent o'z ichiga bilimlar, bilimlarni egallash usullari; narsa-hodisalarning mohiyatiga eta bilish, ularning sabablari va oqibatlarini ko'ra bilish, eng muhim qismni ajrata bilish kabilarni qamrab oladi.

Kognitiv komponentning yetakchi unsuri bilim hisoblanadi. Bilim yuz bergan yoki yuz beradigan tayyor hodisa emas, balki axloq va tafakkurning uzoq vaqt oralig'idagi mahsuli bo'lib, uning bunyod etilishi mavjud madaniyat imkoniyatlari bilan bog'liq. Bu imkoniyatlar turli-tuman bo'lib, ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar bilan bevosita bog'langan bo'ladi. Shuning uchun bilimlarni yaratish, uzatish va egallash bilish sub'ektining aktiv faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'zini o'zi anglashning yangi darajasiga intellektual rivojlanishning muayyan darajasida erishiladi. Bunday darajaning vujudga kelishi o'quv jarayonida shakllanadigan va rivojlangan nazariy tafakkurga asoslanadi. Nazariy tafakkur yangi bilim mazmunini egallash, yangi qiziqishlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kognitiv qiziqishlarning yangi tipini shakllantiradi, ichki refleksiyaning vujudga kelishi va rivojlanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ma'naviy rivojlanish jarayoniga turtki beradi.

Ma'naviy-axloqiy rivojlanishning emotsional komponenti shaxsning o'ziga, boshqa odamlarga, voqea-hodisalarga ma'naviy-axloqiy nuqtai nazardan yondashishi va emotsional idrok qilishini anglatadi. Ijobiy emotsional baho

ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning shaxs tomonidan qabul qilinishi uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Emotsional komponentning muhim unsurlaridan biri boshqa shaxsni empatik tushunish va uning qabul qilinishidan iborat. S.L.Rubinshteyn "shaxsning boshqa shaxslarga munosabat usuli uning eng muhim xarakteristikasi hisoblanadi", deb yozgan edi: "Inson mavjudligining eng muhim shartlaridan biri — boshqa odamning mavjudligidir. Boshqa odamga munosabat inson hayotining negizini tashkil qiladi. Inson qalbi uning boshqa odamlarga munosabatlari bilan yo'g'rilgan. Uning qadri to'raligicha boshqa odamlarga qanday munosabat o'rnatishga layoqatliligi bilan o'lchanadi. Insonning boshqa odamlarga munosabatini psixologik tahlil qilish haqiqiy psixologiyaning negizini tashkil etadi" [3].

Axloqdagi empatiya emotsional holat bilan o'rtoqlashish qobiliyatini va ko'nikmasini, boshqa shaxsga energiya uzatish layoqatini anglatadi. O'zini o'zi anglagan shaxs, o'z rolini to'la o'rgangandan keyin faoliyat yuritish, o'zini namoyon qilishga o'tadi va bu jarayonga atrofidagi odamlarni ham jalb etadi. O'zining mohiyatini, potensial imkoniyatlarini anglash o'zga shaxsga munosabat orqali namoyon bo'ladi. Bu munosabat jarayonida o'zga shaxs buyuk qadriyat sifatida o'zining betakrorligi va tanholigi orqali gavidalanadi. O'zga shaxslarni mana shunday his qila bilish altruizm, mehribonlik, hamdardlik, muhabbat singari ma'naviy qadriyatlarning namoyon bo'lishidir. Bular o'z navbatida empatiyaning rivojlanish darajasini shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanish darajasining ko'rsatkichi sifatida qabul qilishga asos bo'ladi.

Xulq-atvor komponenti ma'naviy rivojlanishning uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki bu jarayon voqelikni o'zlashtirishning ijtimoiy, shaxsiy usuli bo'lib u faqat bilish bilan emas, shaxsning ma'naviy qadriyatlarga yo'naltirilgan faoliyati bilan ham bog'liqdir. Ba'zi shaxslarda ijobiy ma'naviy qarashlar va qadriyatlar mavjud bo'lsa ham, ularda mana shu qarash va qadriyatlar asosida harakat qilish uchun jasorat etishmaydi. Bunday odamlardagi ma'naviy-axloqiy qarashlar e'tiqod darajasiga ko'tarilmagan bo'ladi.

Xulq-atvor komponentining etakchi elementi iroda hisoblanadi. Iroda ma'naviy kuch bo'lib maqsad tomon harakat qilish jarayonida paydo bo'ladigan to'siqlarni engish uchun zarur bo'ladi. Iroda insonning mustaqilligini, ya'ni atrof-muhit va o'zgalar fikrining bosimiga qarshi harakat qila olishida namoyon bo'ladi. Ma'naviy rivojlanish murakkab jarayon bo'lib uni qo'llab-quvvatlash, takomiliga etkazish uchun irodaning ishtiroki zarurdir.

Psixologiya fanida ma'naviy rivojlanish murakkab jarayon sifatida belgilanib uning bir necha bosqichlari mavjud:

1. Insonda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarning paydo bo'lishi;

2. Ularning interiorizatsiyalashuvi (ya'ni bilimlarning e'tiqodga aylanishi);

3. E'tiqodning individ xatti-harakatlari va faoliyatida namoyon bo'lishi.

Jahon psixologiya faniga jumladan, A.Mayers, J.Milgram, Saks, M.Rokich, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn va boshqalarning nazariy ishlanmalariga asoslanib, axloqiy qadriyatlar rivojlanishning uch darajasini belgilashni lozim topdik:

1. Quyi daraja - ma'naviy-axloqiy qadriyatlar to'g'risida alohida uzuq-yuluq tasavvurlarning paydo bo'lishi, lekin ularning interiorizatsiyalashmagani, faoliyat va xatti-harakatlarda namoyon bo'lmasligi bilan xarakterlanadi.

2. O'rta bosqich. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurning kengayishi va qisman interiorizatsiyalashuvi bilan xarakterlanadi. Biroq ularning shaxs faoliyatida namoyon bo'lishi kamdan-kam holatlarda yuz beradi, yoki umuman yuz bermaydi [4]

3. Yuqori daraja. Ma'naviy qadriyatlar to'g'risida keng tasavvurning mavjudligi, ularning to'la interiorizatsiyalashuvi, bilimlarning e'tiqodga aylanishi hamda individ faoliyatida namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Shunday qilib, ma'naviy rivojlanish darajasi qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurning shakllanganligi, ularning interiorizatsiyalashuvi va faoliyatda namoyon bo'lish darajasi bilan belgilanadi [5].

XULOSA

“Psixologiyada axloq va axloqiy qadriyatlar muammosining o'rganilishi” shaxsda axloqiy qadriyatlar tushunchasining mazmuni, o'quv faoliyati jarayonida o'quvchilar axloqiy motivatsiyasining psixologik xususiyatlari hamda o'zbek va xorij psixologlari tomonidan muammo doirasida olib borilgan tadqiqotlarning tahliliga bag'ishlanadi. Tahliliy ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarni keltirib o'tish joiz:

- Sharq mutafakkir olimlari o'z asarlarida inson ruhiy olamini tasvirlar ekanlar, hayotiy misollar keltirish orqali xulq-atvorning ijobiy hamda salbiy tomonlarini batafsil tahlil qilishga harakat qiladilar. Asarlarda inson xulq-atvoriga xos bo'lgan ma'naviy, ruhiy xususiyatlar, holatlar hikoyat, badiiy obraz, rivoyat-hadislarni keltirish orqali tasvirlanadi;

- axloqiy xulq-atvor deganda axloqiy me'yorlarga, ularni chetlash kishiga ma'lum bir manfaat keltirgan va o'z qilmishlariga yarasha jazo olmasligini bilgan taqdirda ham, ixtiyoriy ravishda rioya qilish nazarda tutiladi. Mazkur sohaga doir asosiy muammolar axloqiy qadriyatlarni deb kishi o'z manfaatlaridan qanday qilib

voz kechishligi mumkinligida; uning negizida qanday psixologik mexanizmlar yotishida; ularning shakllanish yo'larini aniqlashdadir;

- o'zga kishilarga axloqan qadrli va axloqan maqbul munosabatlarga doir, asosan insonparvar va altruistik his-tuyg'ular o'zgalarning ehtiyoj va manfaatlariga e'tiborli bo'lishda, ular bilan hisoblashishda, o'zgalar g'am qayg'usiga hamdardlik bildira olishda o'z ifodasini topadi. Mazkur sohaga doir asosiy muammolar ushbu hodisalarning kelib chiqishi va psixologik tabiatini o'rganish bilan bog'liq;

- Kognitiv sohada axloqiy bilimlar, tasavvurlar va mushohadalar o'rganiladi. Mazkur soha predmeti bo'lib bolalar tomonidan ijtimoiy axloqiy ongning turli jihatlarini o'zlashtirilishi ilgari suriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Mirziyoyev – “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “O‘zbekiston” – 2017. 157-158-betlar

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4300 – son qarori.

3. 2019–2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-4358-son. 2019-yil 17-iyun

4. Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. – T: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971. – 354b.

5. Абрамова Г.С. Возрастная психология. Учеб. пособи для вузов М.: Академический проект. Альма Матер, 2005. – 698с.